

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAHALLA, OILA VA
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI HAMKORLIGI
TAKOMILASHTIRISH**

*Farg'ona viloyati Yozyovon tumani
21-DMTT direktor o'rinbosari
Islomova Shahnoza Ulug'bek qizi*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida mahalla, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi, maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplarga haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье обозначены следующие основные принципы сотрудничества микрорайона, семьи и дошкольной образовательной организации, организация взаимного сотрудничества дошкольной образовательной организации и школы в воспитании детей дошкольного возраста.

Калит so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, hamkorlik, oila, o'quvchi, bolalar, ta'lim-tarbiya, pedagoglar, prinsplar.

Ключевые слова: дошкольные образовательные организации, сотрудничество, семья, ученик, дети, образование, педагоги, директора.

*Maktabgacha ta'lim — bolaning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'luvchi, dastlabki ijtimoiy tajribalarini boyituvchi muhim bosqichdir. Bu jarayonda bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan uch asosiy institut — **oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkiloti** o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Hamkorlikning kuchli bo'lishi bola rivojlanishining sifatiga, tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois ushbu institutlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.*

Hamkorlikning mazmuni va mohiyati-Oila, mahalla va MTT o'rtasidagi hamkorlik — bu bolalarning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, sog'lom rivojlanishi, barkamol ulg'ayishi uchun birgalikda amalga oshiriladigan tizimli faoliyatdir. Hamkorlikning mohiyati quyidagilardan iborat:

- **Bolaning manfaatlari ustuvorligi**-Har bir qaror, tadbir yoki pedagogik yondashuv avvalo bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.
- **Tarbiya jarayonining uzluksizligi**-Oila – mahalla – MTT o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bolaning kundalik hayotida tarbiya davomiyligini ta'minlaydi

- Resurs va imkoniyatlarni birlashtirish Resurs va imkoniyatlarni birlashtirish-**Har uch tomonning moddiy, ma'naviy, intellektual imkoniyatlari birlashganda ta'lim-tarbiya jarayoni samarasi oshadi.**
- O'zaro mas'uliyat va ishonch-**Tarbiya faqat bir tashkilot zimmasida qolmasdan, har bir tomon mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shunga binoan, maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi bog'liqlik bir tomondan, bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o'tkazishni, ikkinchi tomondan, o'qituvchining katta maktabgacha yoshdagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o'quv-tarbiyaviy jarayonda samarali foydalanishni taqozo etadi. Hamkorlik asosini-birgalikdagi ishning istiqbol rejasi tashkil etib, unda maqsad asosiy vazifalar aniq shakllantirilgan, turli yo'nalishlarga doir mazmun aniqlangan, ishning aniq shakli, muddatlari, bajarilishi uchun mas'ul shaxslar ko'rsatiladi. Bu esa amaliy hamkorlikning muvaffaqiyatiga olib keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, hamkorlikdagi izchillikni ro'yobga chiqarishga doir har tomonlama mazmunli ishlarni yuqori darajasiga erishish bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlariga zamin hozirlaydi. Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoklarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda taxdil etishi va harakat qilishi muhim-roq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

Hamkorlikning asosiy vazifalari:

Pedagogik jamoalar oldida turgan birinchi va asosiy vazifa bolani bolalar bog'chasidan maktab o'quv yurtiga o'tkazish jarayoni uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. So'nggi paytlarda bolaning intellektual tayyorgarligining tarkibiy qismlari to'g'risida ko'plab kelishmovchiliklar mavjud, shuning uchun olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarligini yaxshilash bo'yicha birgalikda ish olib borish juda dolzarb vazifadir. Shu bilan birga, bolalarda maktab hayotiga qiziqishni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bir muassasadan ikkinchisiga o'tish davrida ota-onalarga bolani kuzatishda ularning rolini tushunishga yordam berish maktab xodimlari va bolalar bog'chalari o'qituvchilari uchun etakchi vazifadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktab bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish zaruriyati hozirgi

paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta‘lim olishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim ushbu hamkorlikni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida berilayotgan ta‘limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo‘layotgan qiziqish va ta‘limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi. Hamkorlik deganda, ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari mavjud bo‘lib, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifa-tida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi bilan ishlaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o‘qishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyachilar MTTda nimalarni o‘rgatayotganiga tayanib, ta‘lim brrish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Hamkorlikni takomillashtirishning samarali shakllari

- **Ochiq eshiklar kuni**
- **Oila-MTT-mahalla uchrashuvlari**
- **Ko‘rgazmalar, festivallar, oilaviy loyihalar**
- **Volunteer-ota-onalar guruhi**
- **Elektron aloqa kanallari (Telegram guruhlari, onlayn maslahatlar)**
- **Mahallada bolajon maydonchalari va kitobxonlik burchaklari**

tashkil etish

Shuni aytish joizki, har bir davlatning o‘ziga xos tarixi, ta‘lim-tarbiya masalalarida o‘z qarashlari mavjud. Albatta rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, ularda berilgan ta‘limtarbiya metodikalarni taxlil qilish juda muhim. Ularni amaliyotda qo‘llashda albatta o‘zimizni mentalitetimizga, milliy qadriyatlarimizga mos tomonlarini olgan holda amaliyotga joriy qilish ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining maktab bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishida oilalarning o‘rni

Aksar pedagoglar o‘zlariga o‘xshash tajribaga ega bo‘lgan va pedagoglardan xuddi shunday narsani kutadigan oila bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatish osonlashadi. Bu ko‘pincha maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatida muntazam faol ishtirok etadigan oilalar, masalan, bayram tadbirlarida, guruhlarda ko‘ngilli ravishda qatnashadigan, materiallarni taqdim etish va yig‘ilish va konferensiyalarda ishtirok etadigan ota-onalar bo‘lib, pedagoglar ulardan nimani kutayotganliklarini bilishadi.

Fikrlari biznikidan farq qiladigan oilalar yoki pedagoglar kutganidek har xil tadbirlarda ishtirok etmaydigan oila bilan hamkorlik o‘rnatish juda qiyin bo‘lishi mumkin. Biz hatto bu oilalar o‘z farzandlari va ularning ta‘lim olishlari xususida

kamroq g'amxo'rlik qilishlariga yoki o'z farzandlarini tarbiyalashda nisbatan kam bilimga ega ekanligiga ishonishimiz mumkin.

Hamkorlik boshqa tomonni hurmat qilishni, ularning ehtiyojlariga javob berishni va nima ishlayotganini va nima ishlamayotganligiga o'z munosabatini bildirishni talab qiladi. Bunday munosabatlarni boshlash uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalaydigan bolalarning oilasi to'g'risida ma'lumotlarni bilishlari kerak. Oila farzandlarning birinchi va eng muhim tarbiyachisidir.

Maktabgacha ta'lim boshlanganda oilalar bolalarga aksar ko'nikmalarni shakllantirgan: ovqatlanishdan va ichishdan tortib to o'zlariga va boshqalarga qarashgacha o'rgatgan bo'ladi. Ularning aksariyati bolalarga o'z ehtiyojlarini qanday qondirish kerakligini, ularning yoshiga va madaniyatiga qarab o'zlarini qanday tutishni, shu-ningdek, ona tilida og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qilishni o'rganishda yordam berishadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur" ekanligi ota-onalarning qonuniy vazifasi etib belgilangan. Mazkur modda ham ota-onalarning farzand ta'lim-tarbiyasi uchun javobgarligini asoslaydi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilalar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari ustuvor vazifa sanaladi.

Murabbiylik emas, hamkorlik-Aksariyat zamonaviy onalar va otalar ziyoli, bilimli va albatta, o'z farzandlarini qanday tarbiyalash kerakligini yaxshi bilishadi. Shuning uchun bugungi kunda pedago-gik bilimlarni o'rgatish va oddiy targ'ib qilish pozitsiyasi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin emas. Og'ir pedagogik vaziyatlarda oilaga o'zaro yordam va qo'llab- quvvatlash muhitini yaratish, oilaviy muammolarni tushunish va yechimini topishda MTT va maktab o'qituvchilarining oila muammolarini hal qilishda samimiy yordam bermoqchi ekanligini e'tirof qilishi kerak.

Xulosa shuki: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila, mahalla va MTTning uzviy hamkorligini takomillashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshiradi, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga kuchli zamin yaratadi. Hamkorlikning tizimli, shaffof, maqsadli olib borilishi ijtimoiy muhitda ijobiy o'zgarishlar, madaniy yuksalish hamda sog'lom ijtimoiy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mahalla, oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish — barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir. Bunday hamkorlik bolalarning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi, ularning ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uyg'unlikni ta'minlaydi. Ota-onalar, tarbiyachilar va mahalla faollari o'zaro hamkorlikda ishlaganida, bola uchun yagona tarbiyaviy muhit yaratiladi. Natijada, bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar ham mustahkam shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020
2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi /**takomillashtirilgan ikkinchi nashr**”. Toshkent, 2020 y.
3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova
4. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va va oila hamkorligi. 3-modul. - Toshkent. 2008 y.